

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
«O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.225.66**

NURMATOV SHERZOD RUSTAMOVICH

**SOLIQ IMTIYOZLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA
NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
dotsent F.I. Isayev**

Toshkent – 2023-yil

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
I BOB.	SOLIQ IMTIYOZLARINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1-§.	Zamonaviy soliqqa tortish nazariyasida soliq imtiyozlarining ilmiy nazariy talqini.....	11
1.2-§.	Soliq imtiyozlaridan foydalanishning xorij tajribasi.....	21
1.3-§.	Soliq nazoratining nazariy asoslari.....	32
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	42
II BOB.	SOLIQ IMTIYOZLARI MA'MURIYATCHILIGI VA UNING NAZORATINI TAHLILI.....	45
2.1-§.	Soliq imtiyozlari ma'muriyatchiligining amaldagi holati tahlili.....	45
2.2-§.	Soliq imtiyozlari nazoratining amaldagi holati tahlili.....	61
2.3-§.	Soliq imtiyozlaridan foydalanishning ekonmetrik tahlili.....	80
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	99
III BOB.	SOLIQ IMTIYOZLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	102
3.1-§.	Soliq imtiyozlari mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	102
3.2-§.	Soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish istiqbollari.....	115
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	133
	XULOSA.....	136
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	141
	ILOVALAR.....	153

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida global raqobat hamda moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida ko‘plab mamlakatlar tomonidan milliy iqtisodiyotga investorlarni jalb qilish va iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish maqsadida turli imtiyozlar joriy etilmoqda. Darhaqiqat, “odatda soliq imtiyozlaridan rivojlangan mamlakatlar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik hamda eksport faoliyatlarini rag‘batlantirish va o‘z korxonalarining jahon bozorida raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalansalar, rivojlanayotgan mamlakatlar esa ulardan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va milliy sanoatni rivojlantirish uchun foydalanadilar”¹. Soliq imtiyozlarining joriy etilishi yirik soliq to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlashi natijasida xo‘jalik subyektlari o‘rtasida tengsizlikni hosil qilib, adolatlilik tamoyillaridan chetlanishni kuchaytiradi degan xavotirning mavjudligi, ularning samaradorligini ko‘pincha mavhumlashtirib, soliq imtiyozlarining ta‘sirini baholash va shunga mos ravishda siyosatni o‘zgartirishiga oid muammolar mazkur sohani mukammalroq tadqiq etish zaruratini oshirmoqda.

Xalqaro amaliyotda soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishda nazoratni takomillashtirishga oid soliq qonunchiligini isloh qilish, soliq ma‘muriyatchiligi va ijrosini ta‘minlash tizimini takomillashtirish, soliq tizimida oshkoralik va javobgarlikni oshirishga doir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, soliq imtiyozlarini qo‘llashda shaffoflik va hisobdorlikni, soliqqa tortishga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar aylanmasini takomillashtirish, ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilishning samarali usullarini joriy etish, soliq imtiyozlari samaradorligini o‘lchashning uslubiy asoslarini rivojlantirish, soliq imtiyozlarini qo‘llashning izchilligini ta‘minlash, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash sabablarini aniqlash, soliq organlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirish va hamkorlikni kuchaytirish orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarining oldini olish kabi dolzarb masalalar bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

¹ https://www.un.org/esa/ffd/wp-content/uploads/2018/02/tax-incentives_eng.pdf

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘shishni va ijtimoiy farovonlikni yaxshiroq qo‘llab-quvvatlay oladigan yanada samarali va adolatli soliq tizimini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish orqali kambag‘allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta‘minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to‘laqonli o‘tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiylar investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida «tartibga soluvchi gilovina» usulini manzilli qo‘llash orqali imtiyozlar, eksklyuziv huquq va ustunliklarni bekor qilish”² kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlash soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishda nazoratni takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha kengroq tadqiqot olib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sonli “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiylar sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”, 2022-yil 30-dekabrda PF-287-sonli “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriyl etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-iyunda PF-162-sonli “Soliqlar ma‘muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonunning ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriyl-huquqiy hujjatlarda belgilangan

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.04.2022-yildagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiylar sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida” Farmoni.